

XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDA UCHRAYDIGAN ENG KO'P XATOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Termiz davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti 3-kurs talabasi

Ergasheva Malohat Yo'ldosh qizi

ergashevamalohat05@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda ingliz tilini o'rganishda duch kelinadigan ayrim muammolar va ularning yechimlari haqida so'z boradi.

Abstract: This thesis talks about some problems encountered in learning English and their solutions.

Аннотация: В данной дипломной работе рассказывается о некоторых проблемах, возникающих при изучении английского языка, и их решениях.

Kalit so'zlar: Grammatika, chet tili, auditoriya, qo'rquv, so'z boyligi, tartibsiz o'qish va o'rganish.

Key words: Grammar, foreign language, audience, fear, vocabulary, disordered reading and learning.

Ключевые слова: Грамматика, иностранный язык, аудитория, страх, словарный запас, нарушение чтения и обучения.

Hozirgi kunda aksariyat xorijiy tillarni o'rganuvchi yoshlар mazkur tilni o'rganish orqali bir tomonlama natijaga erishishni ko'zlashadi, ya'ni ular yangi xorijiy til o'rganish orqali faqat kirish testlarida yaxshi natijaga erishish, o'zlari o'rganayotgan til bo'yicha til bilish sertifikatini qo'lga kiritish yoki mazkur tilda shunchaki so'zlashuv ko'nikmasini shakllantirishni maqsad qilishadi. Bu esa o'rganilayotgan tilga yuzaki munosabatni shaklanishiga sabab bo'ladi. O'z o'rnida o'rganilayotgan tilga nisbatan bunday yuzaki munosabat ularning mazkur tilni, undagi o'ziga xos ibora va murakkabliklarni to'liq anglab yetishlariga xalaqit beradi va oqibatda ular ushbu tilni o'rganishdan o'zlari kutganday muvaffaqiyatga erisha olishmaydi. Jahonning yarmidan ko'p aholisi kundalik hayotlarida ikki yoki undan ortiq tilda so'zlashishini hisobga olsak, chet tilini o'rganish bir mo'jiza emasligiga ishonch hosil qilamiz. Buning ustiga, chet tilini talabaga faqat sanoqli odamlar erishadigan yutuqqa bo'lgan

imkoniyat sifatida emas, balki ularning zamon bilan hamnafas bo‘lib yurishi uchun o‘rgatishimiz mumkin.¹

“Xorijiy til o‘rganishda eng ko‘p uchraydigan xatolar va ularni qanday yengish mumkin?” Xorijiy til o‘rganish jarayonida ko‘pchilik o‘xshash xatolarga duch keladi. Quyida bu xatolar va ulardan qanday qochish yo‘llari haqida batafsil ma'lumot keltirilgan:

Grammatikaga haddan tashqari e’tibor qaratish. Ko‘p til o‘rganuvchilar grammatik qoidalarga mukammal amal qilishga juda katta e’tibor beradi. Natijada, ular tabiiy ravishda gapirish yoki yozish o‘rniga grammatik tuzilmalar ustida bosh qotirib qolishadi. Grammatikaga haddan tashqari ko‘p vaqt ajratish muloqotga xalaqit qilishi mumkin. Yechim: Amaliyotga ko‘proq e’tibor qarating, xatolardan qo’rqmang. Birinchi navbatda fikringizni yetkazishga harakat qiling, grammatika va tugallanganlik keyingi bosqichda o‘z-o‘zidan rivojlanadi.

Qo‘rquv va xato qilishdan uyalish. Yangi til o‘rganayotganlarning ko‘pchiligi xato qilishdan qo‘rqadi va bu qo‘rquv ularni amaliyot qilishdan to‘xtatadi. Odamlar sizni tanqid qiladi degan xavotir o‘rganish jarayonini sekinlashtiradi. Yechim: Xatolarni til o‘rganishning ajralmas qismi sifatida qabul qiling. Ular sizga qaysi jihatlarni yaxshilash kerakligini ko‘rsatadi va shu orqali rivojlanishga yordam beradi. Shuningdek, xatolar tufayli o‘rganilgan saboqlar doimiyoq bo‘ladi.

O‘z so‘z boyligini kengaytirmaslik. Til o‘rganishda so‘z boyligini oshirmslik – bu katta xato. Odatda o‘rganilgan bir necha yuz so‘zlar bilan cheklanib qolish, tilni to‘liq tushunishni va aniq ifodalanishni qiyinlashtiradi. Yechim: Har kuni yangi so‘zlarni o‘rganing va ularni kundalik hayotda qo‘llashga harakat qiling. So‘zlarni o‘z kontekstida o‘rganish va ularni turli vaziyatlarda qo‘llashni odat qiling. Mobil ilovalar yoki fleshkartalardan foydalanish bu jarayonni osonlashtiradi.

So‘z boyligi va suhbat amaliyotiga yetarlicha e’tibor qaratmaslik. Ko‘p o‘rganuvchilar faqat kitoblarda va o‘quv materiallarida qolib ketishadi, lekin tilning haqiqiy amaliyotiga e’tibor qaratishmaydi. Bu esa suhbat paytida tushunishni qiyinlashtiradi. Yechim: Har kuni tilni faol tinglash va suhbat qilishga vaqt ajrating. Podkastlar, videolar va haqiqiy suhbatlardan foydalanib, tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Suhbatlashish imkoniyatini toping – do’stlar, onlayn hamkorlar yoki tillar klublarida ishtirok eting.

¹ <https://daryo.uz/2019/03/11/ozbekistonda-chet-tillarini-oqitish-muammolari-ular-qanchalik-jiddiy#:~:text=yurishi%20uchun%20o%E2%80%98rgatishimiz-,mumkin,->

Tartibsiz o‘qish va o‘rganish. Doimiylik va izchillik bo‘lmasa, til o‘rganish qiyin bo‘ladi. Ba’zi o‘rganuvchilar motivatsiyaning pasayishi tufayli vaqt o‘tishi bilan til o‘rganishga kamroq vaqt ajratishadi. Yechim: O‘qishni muntazam qilish uchun reja tuzing. Har kuni ozgina vaqt ajratish, vaqtiga bilan uzoq vaqt o‘qishdan ko‘ra samaraliroq. Masalan, kuniga 15-30 daqiqa mashq qilish sizni tezroq rivojlantiradi. Matnlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish. Bir tilni boshqasiga tarjima qilib o‘rganish ham xato usuldir. Tarjima qilishda grammatik tuzilmalarning farqlari va so‘zlarning mazmuni yo‘qolishi mumkin. Yechim: Har bir tilni o‘z mantiqi va uslubida o‘rganishga harakat qiling. Tarjima o‘rniga tilni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushunish va unda fikrlashni rivojlantirish muhim.

Xorijiy tilda kino ko‘rish yoki musiqa eshitishga kelsak. Bu narsalarni foydasiz deyishdan yiroqman. Bular sizning eshitib tushunish, talaffuz qobiliyatlarining shubhasiz oshiradi. Lekin, bular ham, asosan, sizning passiv so‘z boyligingiz oshishiga xizmat qiladi. Endigina til o‘rganishni boshlagan, hali bazaviy so‘z boyligi ham kam bo‘lgan odamga esa bu narsalardan oladigan foydasi juda ham kam bo‘ladi. Har holda bu darajadagi o‘rganuvchilar alohida o‘tirib kino ko‘rish uchun sarflangan 2 soatni foydaliroq va samaraliroq usullarga sarflashlari mumkin.²

Xulosa qilib aytganda, hozirgi yoshlarni har tomonlama yetuk, o‘z sohasining kuchli mutaxassis qilib tarbiyalashda chet tilini bilish juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu borada maktablarda chet tilini o‘qitishda bir qancha muammolar mavjuddir. Ushbu muammolarni bartaraf qilish maqsadida o‘qituvchilar chet tilini o‘qitishda yangicha o‘qitish usullaridan foydalansalar maqsadga muvofiq bo‘lardi. Til o‘rganish jarayonida xatolarni to‘g‘ri boshqarish o‘rganish jarayonini samarali qiladi. Har bir xatolikdan o‘rganish, doimiylikni saqlash va qo‘rqmasdan amaliyot qilish orqali xorijiy tillarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish mumkin. Umuman olganda, chet tili o‘rganishni ommalashtirish bugungi ta’lim tizimidagi ustuvor maqsadlardan biriga aylandi. Buning samarasi esa hozir butun mamlakat bo‘ylab yoshlar orasida til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning keskin ortib ketganida yaqqol yuzaga chiqdi. Ta’lim sohasidagi bu sa’y-harakatlar xorijiy tillarda tahsil olish va o‘qitishda duch keladigan har qanday masalalarni hal etib, dunyo miqyosida vatanimiz ravnaqini ko‘rsata

² <https://grantgo.uz/blog/men-buni-bilaman-birinchi-qism#:~:text=Xorijiy%20tilda%C2%A0kino,usullarga%20sarflashlari%20mumkin>.

oladigan ilm-fan, ta’lim va taraqqiyot nufuzini ko‘tarishga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shadi.³

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London., 2001.
2. <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/1076/1018>
3. <https://www.teach-this.com/ideas/problems-learning-english>
4. <https://www.teach-this.com/ideas/problems-learning-english>
5. <https://parliament.gov.uz/%20muassasalarida%20xorijiy%20tillarni%20o%E2%80%98rganishni%20ommalashtirish>
6. <https://grantgo.uz/blog/men-buni-bilaman-birinchi-qism#:~:text=samaraliroq%20usullarga%20sarflashlari-,mumkin,-.>

³<https://parliament.gov.uz/articles/1614#:~:text=Umuman%20olganda%2C%20chet,salmoqli%20hissasini%20qo%E2%80%98shadi.>